Abstract: The process of sale in agroclusters is one of the important processes, and in this process, the correct organization and maintenance of their accounts ensures the prevention of waste and proper use of finished products in the process of storage and sale. In this article, the content of clusters, the nature of finished products in agroclusters, their recognition, and the current state of accounting for the sale of finished products are theoretically studied and analyzed, and the issues of its improvement are highlighted.

Key words: Cluster, agrocluster, business processes, finished product, sales process.

Аннотация: Процесс реализации в агрокластерах является одним из важных процессов, и в этом процессе правильная организация и ведение их учета обеспечивает предотвращение отходов и правильное использование готовой продукции в процессе хранения и реализации. В данной статье теоретически изучены и проанализированы содержание кластеров, характер готовой продукции в агрокластерах, их признание, современное состояние учета реализации готовой продукции, а также освещены вопросы его совершенствования.

Ключевые слова: Кластер, агрокластер, бизнес-процессы, готовая продукция, процесс продаж.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo’jaligini yer, suv, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalananish asosida jadal rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va qishloq aholisining turmush farovonligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun, O’zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo’yicha qabul qilanayotgan strategik dasturlarda bunga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, qishloq xo’jaligini rivojlantirish bo’yicha “O’zbekiston-2030” strategiyasida 2024-yilda quyidagi vazifalar rejalashtirilgan: “Bir gektardan olinadigan o’rtacha daromadni 4,3 ming dollarga, qishloq xo’jaligi eksport hajmini 2,5 milliard dollarga, paxta hosildorligini o’rtacha 35,5, g’alla bo’yicha 69,0 sentnerga yetkazish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni paxta va g’alla maydonlarining 33 foizida joriy etish, qo’shimcha 91 ming hektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo’llash, 2,5 million tonna quvvatga ega bo’lgan 11 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo’lga qo’yish” [1].

Agrar va oziq-ovqat tarmog’ining qo’shilgan zanjirida klaster modelini qo’llash hosildorlikni oshirish, qiymat zanjirini kengaytirish va eksport hajmini oshirishga yordam beradi. Klaster usuli iqtisodiyotning asosiy va bir-biriga bog’liq tarmoqlarini muvaffaqiyatlri rivojlantirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, xomashyo, energetik, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalananish imkonini beradi.



"Klaster – ma'lum sohada faoliyat ko'rsatayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvi bo'lib, u ishlab chiqarish korxonalar raqobatbardoshligining o'sishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o'zaro chambarchas bog'langan tarmoqlar yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi tuzilma" [10].

"Klaster – bu korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshlikni oshiruvchi, raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turish jarayonidagi talablarga to'la javob beruvchi tuzilma" [11].

"Klaster – bu bir ilmiy-tadqiqot va o'quv markazi atrofida birlashgan ta'minotchi, ishlab chiqaruvchi va xaridor korxonalar o'rtafigi hamkorlikni, bir-biriga munosabatlari bilan bog'liq to'ldiruvchi bir tarmoqni tashkil etadi" [22].

Agrar-tadbirkorlik sohasida joriy yilda 55 ta agrosanoat klasterlari faoliyati tashkil etilib, jami klasterlar soni 669 taga yetkazildi [25].

Bugungi kunda paxta-to'qimachilik klasterlari 153 ta, g'allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 ta, sholichilik 41 ta, dorivorchilik 8 ta, chorvachilik 34 ta, qorako'lchilik 46 ta, parrandachilik 11 ta, baliqchilik 38 ta va pillachilik 76 tani tashkil etmoqda (1-jadval).

1-jadval: 2024-yil 1-yanvar holatiga klasterlar soni va yo'nalishi to'g'risida ma'lumot [25]

| Nº | Klasterlar yo'nalishlari | Klasterlar soni |
|---|---------------------------------|-----------------|
| 1. | Paxta-to'qimachilik klasterlari | 153 |
| 2. | G'allachilik klasterlari | 126 |
| 3. | Meva-sabzavotchilik klasterlari | 136 |
| 4. | Sholichilik klasterlari | 41 |
| 5. | Dorivorchilik klasterlari | 8 |
| 6. | Chorvachilik klasterlari | 34 |
| 7. | Qorako'lchilik klasterlari | 46 |
| 8. | Parrandachilik klasterlari | 11 |
| 9. | Baliqchilik klasterlari | 38 |
| 10. | Pillachilik klasterlari | 76 |
| Respublika bo'yicha jami klasterlar: | | 669 |

Klasterlar tomonidan sohaga 510 mln. Dollar investitsiya jalg qilinib, paxtani qayta ishlash 65 foizga (2022-yilga nisbatan 832 ming tn yoki 123 foizga oshgan), g'allani qayta ishlash 38 foizga (105 tn yoki 102 foizga), meva-sabzavotni qayta ishlash 92 foizga (110 ming tn yoki 111 foizga) yetkazilgan. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalar – 34,7 ming ga o'rnatilib, jami 161,6 ming ga, yer maydonlarini lazerli – 45 ming ga tekislanib, jami 237 ming ga yetkazilgan [25].

Qishloq xo'jaligi texnikalari 1,1 mingdan ortiq xarid qilinib, texnika bilan ta'minlanish darajasi 92 foizni tashkil etgan. Klasterlar tomonidan sohaga ilg'or ilm-fan yutuqlari, innovations texnologiyalar va zamonaevi agrotexnik tadbirlarning joriy qilinishi natijasida o'rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Joriy yilda Yangi O'zbekiston tarixida ilk marotaba 3,7 million tonna paxta xom-ashyosi yetishtirildi [25].

Agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni sotish jarayoni, agroklasterda bir ishlab chiqarish bo'linmadan ikkinchi ishlab chiqarish bo'linmaga berish yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni o'z ichiga oladi. Agroklasterlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari harakatini olib qaraydigan bo'lsak, dastlab ular agroklasterga qarashli ishlab chiqarish bo'linmasida ishlab chiqiladi yoki agroklasterga qarashli bo'lmagan qishloq xo'jalik korxonalaridan sotib olinadi, saqlanadi, qayta ishlanadi, qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot olinadi hamda olingen mahsulot sotiladi.

Agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni sotish jarayoni muhim jarayonlardan biri bo'lib, bu jarayonda ular hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish tayyor mahsulotlarni saqlash va sotish jarayonida nobudgarchilini oldini olish va maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tayyor mahsulotning mohiyati, ularning tan olinishi va buxgalteriya hisobida sotish biznes jarayonlarining aks ettirilish tartibi maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlarda yetarlicha yoritilgan bolib, tayyor mahsulotlarni sotishni to'g'ri hisobga olish, uning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Iqtisodiy terminlarning manbalarda "tayyor mahsulot (inglizcha: finished product)ga turlichra ta'riflar berilgan, jumladan, iqtisodiy terminlar



Iug'atida "Tayyor mahsulot bu qonun bilan belgilangan, texnik va sifat ko'rsatkichlari shartnoma shartlariga yoki boshqa hujjatlar talablariga javob beradigan, sotish uchun mo'ljallangan tovar-moddiy zaxiralarning bir qismi (ishlab chiqarish siklining yakuniy natijasi, qayta ishlash (tanlash) bilan yakunlangan aktivlar)"^[24] deb ta'rif berilgan.

Iqtisodchi-olimlar N.P.Kondrakov^[9] va T.D.Bursulaya^[3] lar tayyor mahsulotlarga quyidagicha ta'riflaydi: "Tayyor mahsulotlar – bular to'liq qayta ishlangan, amaldagi standartlarga yoki texnik shartlarga mos kela-digan, tashkilot yoki buyurtmachi (xaridor) omborida qabul qilingan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar". Ushbu ta'rifda, qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatida qaralganda, tayyor mahsulot hisoblangan barcha qishloq xo'jalik tayyor mahsulotlari to'liq qayta ishlangan hisoblanmaydi, ular boshqa ishlab chiqarish bosqichida qayta ishlanshi e'tibordan chetda qolgan.

K.B.Urazov va M.E.Po'latovlar qayd etishicha "Tayyor mahsulot deganda, ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlaridan o'tgan, ortiq qayta ishlovnii talab qilmaydigan, o'zining sifati bo'yicha davlat standartlariga, texnik shartlarga javob beradigan va omboxonalarga qabul qilingan tayyor buyumlar tushuniladi"^[17]. Ushbu ta'rifda mualliflar tomonidan, bir ishlab chiqarishdan olingen tayyor mahsulotlar, keyingi ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishtirot etishi hisobga olinmay qolgan.

G'ulomova F.G'. yozishicha esa, "Tayyor mahsulot – bu muayyan korxonada ishlov berilishi to'liq tugal-langan, standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, texnika nazorati bo'limi tomonidan qabul qilingan va tayyor mahsulot omboriga topshirilgan mahsulot"^[6]. Bu yerda ham muallif tomonidan yuqorida qayd etgan fikrlarga e'tibor qaratilmagan.

N.T.Yuldashevaning ta'rificha: "Tayyor mahsulot deb korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonlaridan to'liq o'tgan va omborga sotish maqsadida qabul qilingan barcha talab va standartlarga javob beruvchi mahsulotlarga aytildi"^[21]. Ushbu ta'rifda "tayyor mahsulot" "javob beradigan mahsulot" deb e'tirof etilgan bo'lib, biroz noaniq bo'lib qolgan.

Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z.lar ta'kidlashicha, "Sotish jarayoni xo'jalik mablag'lari aylanishining so'nggi bosqichi bo'lib, bu bosqichda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridor va iste'molchilarga shartnomalar asosida yetkaziladi. Sotish jarayoni xo'jalik jarayonini tugallaydi va yana-yan-gidan ta'minot jarayoni boshlanadi hamda bu jarayon oldingiga qaraganda kengroq tus oladi"^[8].

Professor Xasanov B.A. ta'kidlashicha^[19], sotish (realizatsiya) jarayonida – ishlab chiqarilgan tovar mahsulotlari xaridorlarga jo'natalidi va ular qabul qilib olgan mahsulotlari uchun shartnoma narxida mol yetkazib beruvchilarga pul to'lanadi.

Xolbekov R.O.fikricha^[20], sotish bosqichida ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulotning iste'molchilarga sotish sodir bo'ladi. Bu bosqichning yakunida korxona zaxiralari yana pul shakliga kiradi. Sotish jarayonining yakunlanishi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni taqsimlash imkonini beradi.

Yuqorida tahlillardan ko'rinish turibdiki, "tayyor mahsulot – biron bir ishlab chiqarish jarayonidan olingen, shu jarayonda ishlov berish yakunlangan, standart talablari va texnik shartlarga javob beradigan, xaridorga yoki keyingi ishlov berishga jo'natalgan yoki omborga topshirilgan buyum yoki yarim tayyor mahsulot", "sotish jarayoni – bu operatsiyalar majmuyi bo'lib, buning natijasida aktiv (sotish obyekti)ga bo'lgan mulk huquqi sotuv-chidan xaridorga o'tadigan, daromadlar va xarajatlarni taqqoslash amalga oshiriladigan va pirovardida sotish jarayonining moliyaviy natijasini aniqlash imkonini beradigan jarayondir".

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Olib borilgan tadqiqot ishlarmizda, respublikamizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi tartibga solish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sotishni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar, Samarcand viloyatida faoliyat yuritayotgan agroklasterlar hamda ilmiy-tadqiqot natijalarining materiallaridan foydalanildi. Ilmiy-tadqiqot ishlari bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jalik korxonalari, shu jumladan, agroklasterlarda xo'jalik faoliyati uch bosqichdan iborat: ta'minot, ishlab chiqarish va sotish. Ushbu jarayonlar barchasi xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ushbu jarayonlarni bir-biri bilan bog'liqligi qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini yaxshi tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish natijasida qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi barqaror oshib bormoqda (2-jadval).



2-jadval: Respublika qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari, 2019-2023-yillarda [26]*

| Nº | Ko'rsatkichlar | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi, % da |
|----|--|----------|----------|----------|----------|----------|---|
| 1. | Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mlrd. so'm | 216283,1 | 250250,6 | 303415,5 | 345191,7 | 404648,6 | 187,1 |
| | o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da | 103,3 | 102,7 | 103,9 | 103,6 | 103,9 | 100,6 |
| | shu jumladan: | | | | | | |
| 2. | Dehqonchilik | 111904,8 | 123858,8 | 152130,4 | 177962,7 | 202679,1 | 181,1 |
| | o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da | 104,8 | 103,2 | 104,3 | 103,8 | 104,2 | 99,4 |
| 3. | Chorvachilik | 104378,3 | 126391,8 | 151285,1 | 167229,0 | 201969,5 | 193,5 |
| | o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da | 101,6 | 102,1 | 103,5 | 103,3 | 103,7 | 102,1 |

*Yillik statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Ushbu 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, respublikamiz bo'yicha 2023-yilda 2019-yilga nisbatan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi 87,1 foizga (188365,5 mlrd. so'mga) oshgan. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida sezilarli o'zgarish bo'lgan, ya'ni 2019-yilda jami mahsulotni 48,2 foizi chorvachilik mahsulotlarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 49,9 foiz (104378,3 mlrd. so'm)ni tashkil etgan. Respublika bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 84,2 foizga yoki 97591,2 mlrd. so'mga oshgan.

3-jadval: Respublikada 2019-2023-yillarda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi [26]*

| Nº | Mahsulot turi | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi | |
|----|-------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|---|-----------|
| | | | | | | | Mutloq | Nisbiy, % |
| 1 | Bug'doy, ming tonna | 6093,5 | 6157,8 | 5984,8 | 6270,1 | 6461,7 | 368,2 | 106,0 |
| 2 | Paxta xom ashyosi, ming tonna | 2691,7 | 3064,0 | 3372,9 | 3500,7 | 3710,3 | 1018,6 | 137,8 |
| 3 | Kartoshka, ming tonna | 3089,7 | 3143,8 | 3 285,6 | 3 443,2 | 3 574,1 | 484,4 | 115,7 |
| 4 | Sabzavot, ming tonna | 10215,1 | 10431,4 | 10850,2 | 11162,9 | 11553,7 | 1338,6 | 113,1 |
| 5 | Oziqbop poliz, ming tonna | 2068,7 | 2134,4 | 2 285,3 | 2 420,7 | 2 553,5 | 484,8 | 123,4 |
| 6 | Meva, ming tonna | 2752,7 | 2812,6 | 2 852,6 | 2 999,3 | 3121,7 | 369,0 | 113,4 |
| 7 | Uzum, ming tonna | 1603,3 | 1 606,9 | 1 695,3 | 1760,6 | 1737,6 | 134,3 | 108,4 |
| 8 | Go'sht (tirik vaznda), ming tonna | 2473,6 | 2519,6 | 2635,1 | 2725,9 | 2833,3 | 359,7 | 114,5 |
| 9 | Sut, ming tonna | 10714,3 | 10976,9 | 11274,2 | 11627,2 | 11968,7 | 1254,4 | 111,7 |
| 10 | Tuxum, mln.dona | 7771,2 | 7781,2 | 7788,4 | 8129,2 | 8487,5 | 716,3 | 109,2 |
| 11 | Asal, tonna | 13001,7 | 13357,8 | 14066,9 | 14700,4 | 15620,6 | 2618,9 | 120,1 |
| 12 | Qirqib olingan jun, tonna | 35115 | 35422 | 36345 | 37 307 | 38 639 | 3524,0 | 110,0 |
| 13 | Olingan qorako'l terilar, ming dona | 1150,7 | 1152,1 | 1252,4 | 1287,6 | 1321,1 | 170,4 | 114,8 |
| 14 | Pilla, tonna | 21374,1 | 20941,9 | 22769,9 | 24300,2 | 25885,8 | 4511,7 | 121,1 |

*Yillik statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

3-jadval tahlilidan ko'rilib turibdiki, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish yildan yilga oshib, 2023-yilda 2019-yilga nisbatan asosiy turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan bug'doy 368,2 ming tonna (o'sish 106,0%), paxta xomashyosi 1018,6 ming tonna (o'sish 137,8%), kartoshka 484,4 ming tn (o'sish 115,7%), sabzavotlar 1338,6 ming tonna (o'sish 113,1%), poliz 484,8 ming tn (o'sish 123,4%), mevalar 369,0 ming tonna (o'sish 113,4%), uzum 134,3 ming tonna (o'sish 108,4%), go'sht (tirik vaznda) 359,73 ming tonna (o'sish 114,4%), sut 1254,4 ming tonna (o'sish 111,7%), tuxum 716,3 mln. Dona (o'sish 109,2%), jun 3542,0 ming tonna (o'sish 110,0%), qorako'l teri 170,4 ming dona (o'sish 114,8%), pilla 4511,7 ming tonna (o'sish 121,1%)ga oshgan.



Buxgalteriya hisobida tayyor mahsulotlar sotilishi va boshqa hisobdan chiqarishlar hisobini takomillashtirish tayyor mahsulotlarni daromadga olinishidan boshlab, ularni sotish va boshqa hisobdan chiqarishlar jarayonida tayyor mahsulotlar nobudgarchilagini oldini oladi, to'la saqlanishi va maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlaydi.

Agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni hisobga olish, saqlash va hisobdan chiqarish jarayoni buxgalteriya hisobining muhim uchastkalaridan biri bo'lib, buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilishi va yuritilishi tayyor mahsulotlarni to'liq daromadga olish, nobudgarchiliklarni oldini olish, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlaydi.

Agroklasterlarda bir ishlab chiqarish bo'linmasini tayyor mahsuloti ikkinchi bo'linmasiga xom ashyo sifatida beriladi, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaradigan bo'linmada – qishloq xo'jalik mahsulotlari (don, sabzavot, meva va h.k.lar) tayyor mahsulot bo'lsa, qayta ishlaydigan bo'linmalarda qayta ishlashdan olingan mahsulotlar (meva, sabzavot, uzum sharbatи va h.k.lar) tayyor mahsulot hisoblanadi.

Agroklasterlarda tayyor mahsulotlar sotilishi va boshqa hisobdan chiqarishlar bilan bog'liq jarayonlarni quyidagi ikki guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. tayyor mahsulotlar sotilishi:

- xaridor va buyutmachilarga sotish;
- o'z ichki bo'linmalariga sotish;
- o'ziga tegishli savdo do'konlari yoki yarmakalarda sotish;
- o'z xodimlariga mehnat haqi hisobidan sotish va h.k.lar.

2. tayyor mahsulotlarni boshqa hisobdan chiqarishlar:

- xayriya va shu kabi boshqa maqsadlarga tekinga berish;
- inventarizasiya natijasida kam chiqishi;
- nobud bo'lishi, tabiiy kamayishi va h.k.lar.

Tayyor mahsulotlar sotish kanallar turlicha bo'lib, tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan tushum agroklasterlar daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni o'z ichki bo'linmalari o'rtaSIDagi harakati, ya'ni bir ishlab chiqarish bo'linmadan ikkinchi bo'linmaga berilishi, mahsulot sotish sifatida qaralsa-da, sotishdan olingan tushum sifatida tan olinmaydi. Mahsulotlar xaridor va buyurtmachilarga, savdo yarmakalarida, o'z xodimlariga mehnat haqqi hisobidan sotilganda sotishdan olingan tushum sifatida tan olinadi.

Agroklasterlarda tayyor mahsulotlarning buxgalteriya hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettiresh tartibini O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" belgilaydi. "Tovar-moddiy zaxiralar-faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar" [2].

"Tovar-moddiy zaxiralar o'z ichiga oladi:...tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot" [7].

Tayyor mahsulotlar sintetik va analitik hisobini takomillashtirishda ular bo'yicha ochilgan analitik schyotlar va schyotlar bog'lanishini amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlari talablari asosida tayyor mahsulotlarning saqlanish joylari, moddiy javobgar shaxslar bo'yicha kirimi va chiqimini nazorat qilish imkonini beradigan holda soddallashtirish lozim.

"Bugungi kunda buxgalteriya hisobining xalqaro standarti sifatida ikkita etalon – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – MHXS (International Financial Reporting Standards(IFRS)) hamda AQShning Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari – BHUQ (Generaiiy Accepted Accounting Principles-GAAP) tan olingan" [12].

Shuning uchun, tayyor mahsulotlar hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standarti sifatida tan olingan etalonlar asosida takomillashtirish, agroklasterlarda tayyor mahsulotlar hisobini takomillashtirishga olib kelib, ulardan samrali foydalanishni, sotish va boshqa hisobdan chiqishlarni to'g'ri hisobga olishni ta'minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, agroklasterlarda biznes jarayonlarining tayyor mahsulotlarini sotish hisobini takomillashtirish quyidagi yo'naliishlarda olib borish maqsadga muvofiqligi asoslandi:

- agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni baholashni takomillashtirish;
- agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni ombor xo'jaligi hisobini takomillashtirish;
- agroklasterlarda tayyor mahsulotlarning harakati bo'yicha dastlabki hisobni takomillashtirish;
- agroklasterlarda tayyor mahsulotlarni sintetik va analitik hisobini takomillashtirish.

Yuqoridagi takliflarimiz, agroklasterlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligi oshishini va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини 2023-йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-300-сон қарори, 2а-иловаси 54-мақсад. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ni tasdiqlash haqida. 1-i洛va www.lex.uz
3. Бурсулай Т.Д. Учет выпуска готовой продукции. <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a11/1017103.html>.
4. Eshmuradov U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
5. ESHMURADOV, U. T., & ALIKULOV, A. I. (2014). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF SALES AGRICULTURAL PRODUCTS ON FARM ENTERPRISES. SEA: Practical Application of Science, 2(3).
6. Фуломова Ф.Ф. Бухгалтерия ҳисобини мустақил ўрганувчилар учун қўлланмана. 2-қайта ишланган ва кўшимчалар киритилган нашр. –Т.: “NORMA” МЧЖ, 2009. 496-6.
7. Каримов А.А., Ибрагимов А.К., Ризаев Н.К., Имамова Н.М.. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари. (Дарслик). –Т.: “Niholprint” ОК, 2021, 3326.
8. Каримов А.А, Исломов Ф.Р., Авлоқулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2004. – Б. 28.
9. Кондраков Н. П. Самоучитель по бухгалтерскому учету.-7-е изд., перераб. и доп. –М.: Проспект, 2021. 608 с.
10. Porter M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>.
11. Помитов С.А. Кластеры: характеристика и модели.<http://ekportal.ru/page-id>.
12. Ташназаров С.Н. Товар-моддий захиралар таннархи ва уларни молиявий ҳисоботда акс эттириш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. –№ 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил № 6, 2017. www.iqtisodiyot.uz
13. Tashmuratovich E. U. (2023). ACCOUNTING AND AUDIT IMPROVEMENT OF READY SALE PRODUCTS IN AGRO-CLUSTER. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 649-657.
14. Tashmuratovich E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20–28.
15. Tashmuratovich E. U. B., & Xaitovich Y. S. (2024). G 'ALLACHILIK KLASTERLARIDA TRANSFERT BAHO BELGILASHNI USULLARI TAHЛИLI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(01), 133-141.
16. Tashmuratovich E. U. B. (2023). Agroklasterlar sotish jarayonlarida segmentar hisobtlarning ahamiyati. Научный Фокус, 1(7), 790-795.
17. Уразов К.Б. ва Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 558 б.
18. Ulugbek T. E., & Abdimumin I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. SEA-Practical Application of Science, (5), 649-654.
19. Хасанов Б.А., Хашимов А.А., Пардаева З.А.Бухгалтерия ҳисоби назарияси/ Мустақил таълим учун қўргазмали ўқув қўлланмана –Т.: “YANGI NASHR”, 2011. – 46 б.
20. Холбеков Р.О. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Дарслик. –Т.: “Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2011. – Б. 15-16.
21. Юлдашева Н.Т. Тайёр маҳсулот сотилиши ҳисобини янада такомиллаштириш йўуллари. Таълим фидойилари. Электрон журнал. ISSN: 2180-2130. Vol.,1, ISSNE 1 MAY(2022) Май 2022.
22. Яшева Г.А. Формирование и реализация кластерного подхода в управлении конкурентоспособностью предприятий легкой промышленности Республики Беларусь. Минск: Изд-во БГЭУ, 2009.
23. Эшмурадов У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БҮЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).
24. Экономические термины. <https://neftegaz.ru/tech-library/economy/147119-gotovaya-produktsiya/>. https://ru.wikipedia.org/wiki/Готовая_продукция.
25. O'zbekiston qishloq xo'jaligining yillik hisoboti: Erishilgan natijalar, tahlillar va tendensiyalar. 2023-yil. [https://www.agro.uz/charts/](http://www.agro.uz/charts/)
26. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.